

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIIYACHILARNING KASBIY MAHORATI VA TAJRIBALARINI TIZIMLI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Yo'ldosheva Feruzaxon Shavkatjon qizi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi  
magistranti

### Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilarning kasbga oid mahoratini tizimli rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar tahlil etiladi. Diagnostika, rejalashtirilgan, amaliy o'qitish, mentorlik hamda monitoring bosqichlari vositasida kasbiy kompetensiyani oshirish mexanizmlari yoritiladi. Jumladan, zamonaviy metodlar hamda raqamli texnologiyalarning tarbiyachi malakasini rivojlantirishdagi o'rni ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, kasbiy mahorat, tizimli rivojlantirish, innovatsion metodlar, mentorlik, kompetensiya.

**Аннотация.** В статье анализируются методические подходы, направленные на системное развитие профессионального мастерства воспитателей в дошкольных образовательных организациях. Раскрываются механизмы повышения профессиональной компетентности посредством этапов диагностики, планового и практического обучения, наставничества и мониторинга. В частности, рассматривается роль современных методов и цифровых технологий в развитии квалификации воспитателей.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, воспитатель, профессиональное мастерство, системное развитие, инновационные методы, наставничество, компетентность.

**Abstract.** The article analyzes methodological approaches aimed at the systematic development of professional skills among preschool educators. It describes mechanisms for enhancing professional competence through the stages of diagnostics, planned and practical training, mentoring, and monitoring. The role of modern methods and digital technologies in improving educators' qualifications is also examined.

**Keywords:** preschool education, educator, professional skills, systematic development, innovative methods, mentoring, competence.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish yuzasidan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ning qabul qilinishi, Davlar-xususiy sheriklik asosida yangi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ochilishi, raqamli ta'lim platformalarining yo'lga tarbiyachilardan yuqori malaka, kreativ yondashuv va pedagogik kompetensiyaning muntazam rivojlanishini talab etmoqda[1]. Shuningdek, 2022-yilda qabul qilingan "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qaror ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni

kiritish, tarbiyachilar malakasini oshirishni tizimli tarzda tashkil etish va xalqaro tajribalardan keng foydalanish vazifalarini belgilab berdi[2]. Ushbu islohotlar fonida tarbiyachilarning kasbiy mahoratini davomiy rivojlantirish, ularni metodik, psixologik va pedagogik jihatdan rag'batlantirish zamonaviy maktabgacha ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ko'zga tashlanmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi eng avval tarbiyachining kasbiy mahorati va amaliy ko'nikmalariga tayanadi. Kasbiy mahorat quyidagi tarkibiy qismlarni qamrab oladi:

- \*pedagogik va psixologik bilimlar;
- \*zamonaviy metod va texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalari;
- \*bolalar individual rivojlanishini tahlil qilish qobiliyati;
- \*kommunikativ mahorat;
- \*kreativ masalalarni yechish mahorati.

Zamonaviy ta'limda tarbiyachi nafaqat bilim beruvchi, balki faollashtiruvchi pedagog, motivator, maslahatchi va nazoratchi sifatida faoliyat yuritishi zarur.

Tarbiyachilarning kasbiy mahoratini tizimli rivojlantirish metodikasi. Tarbiyachilarning kasbiy mahoratini tizimli tarzda rivojlantirish – maktabgacha ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda asosiy omil hisoblanadi. Bu jarayon bosqichma-bosqich tashkil etilgan bo'lib, har bir bosqich tarbiyachining professional kompetensiyalarini oshirish, amaliy faoliyatini takomillashtirish hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarga uyg'un ravishda rivojlantirishga qaratiladi<sup>1</sup>. Tizimli rivojlanishning birinchi bosqichi — **diagnostika** hisoblanib, bunda tarbiyachining mavjud ko'nikmalari, kuchli va zaif tomonlari, ehtiyojlari va faoliyatdagi kamchiliklari analiz qilinadi. Diagnostika jarayonida pedagogik testlar, kuzatuvlar, suhbatlar, metodik ishlarning tahlili va amaliy mashg'ulotlar natijalari asosiy mezon sifatida ishlaydi<sup>2</sup>. Bu bosqich tarbiyachining keyingi rivojlanish yo'nalishlarini belgilashga ilmiy jihatdan asoslaydi.

Ikkinchi bosqich – **rejalashtirish bosqichi bo'lib**, diagnostika natijalariga tayangan holda shaxsiy rivojlanish rejasi tuziladi. U qisqa muddatli (bir oy yoki chorak) va uzoq muddatli (yarim yil – bir yil) vazifalarni o'z ichiga oladi. Reja tarbiyachining individual ehtiyojlari, ta'lim tashkilotining rivojlanish strategiyasi hamda zamonaviy pedagogik talablarga ko'ra shakllantiriladi[3].

Uchinchi bosqich – **amaliy o'qitish**. Tarbiyachi malakasini oshirishning eng aktiv qismidir. Bu jarayonda seminar-treninglar, amaliy master-klasslar, muammoli vaziyatlar tahlili, rolli o'yinlar, modulli o'qitish kabi metodlardan keng qo'llaniladi. Amaliy o'qitish tarbiyachiga nazariy bilimlarni real pedagogik jarayonda foydalanish, yangi metodikalarni sinab ko'rish va faoliyatda innovatsion yondashuvlarni joriy etish imkonini beradi[4].

To'rtinchi bosqich – **mentorlik tizimining** joriy etilishidir. Mentorlik malakali tarbiyachilar tomonidan yosh mutaxassislariga amaliy yordam berish, kuzatuv darslari o'tkazish, metodik maslahatlar ko'rsatish, hamkorlikdagi faoliyat orqali tajriba almashishni tatbiq etadi. Bu tizim tarbiyachining kasbiy o'sishini tezlashtiradi, metodik madaniyatini shakllantiradi va o'z-o'zini rivojlantirishga rag'bat beradi[5].

Beshinchi bosqich – **monitoring va refleksiya bosqichidan iborat**. Bu jarayon tarbiyachining rivojlanish ko'rsatkichini muntazam baholashni o'z ichiga oladi. Tarbiyachi o'z faoliyati davridagi yutuq va muammolarni tahlil qiladi, yutuqlar portfeli (portfolio) yuritadi, natijalar asosida yangi maqsadlarni amalga oshiradi. Monitoring tizimi tarbiyachining kasbiy rivojlanishini nazorat qilish, rejalashtirilgan ko'nikma va kompetensiyalarning qay darajada shakllanganini aniqlashda yordam beradi[6].

Zamonaviy maktabgacha ta'lim sharoitida tarbiyachilar kasbiy rivojlanishida **innovatsion metodlar va raqamli texnologiyalarning** ahamiyati sezilarli darajada yuksakdir. Modulli o'qitish tarbiyachining ehtiyojiga uyg'unlashtirilgan o'quv bloklarini tanlash imkonini beradi; raqamli ta'lim platformalari – videodarslar, LMS tizimlari, onlayn kurslar – mustaqil ta'limni tezkor va osonlashtiradi; STEAM yondashuvi ijodkorlik va mantiqiy fikrlashni o'stiradi; loyiha asosida o'qitish tarbiyachining tashabbuskorligini oshiradi; portfolio metodikasi o'sish jarayonini hujjatlashtirishga zamin yaratadi[7]. Umuman olganda, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi kasbiy rivojlanish jarayonini samarali va zamonaviy talablarga mos qiladi.

Tarbiyachilarning kasbiy rivojida hamkorlik va tajriba almashish jarayonlari alohida ahamiyatga ega. Pedagoglar o'zora bir-biri bilan muloqotda bo'lishi, tajriba va metodik yutuqlarni bo'lishish faqat ularning amaliy ko'nikmalarini boyitish emas, balki ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha yondashuvlarni tatbiq etish imkonini ham beradi. Metodik birlashmalar faoliyatida muntazam qatnashish, ochiq mashg'ulotlar tashkil etish va ularda kuzatuvchi sifatida ishtirok etish tarbiyachilarga o'z faoliyatini tahlil qilish, zamonaviy metodikalarni amalda ko'rish va o'z ustida ishlash kerakligini chuqur anglashga yordam beradi. Shuningdek, amaliy seminarlarda qatnashish, hududiy, respublika va xalqaro miqyosdagi konferensiyalarda ishtirok etish tarbiyachilarning ilmiy-pedagogik dunyoqarashini ochadi, ular uchun global tajribalarni o'rganish va o'z amaliyotiga moslashtirish imkonini yaratadi. Bunday ilmiy-amaliy maydonlar pedagogning innovatsion fikrlashini shakllantiradi, kasbiy rivojlanish sur'atlarini jadallashtiradi hamda fanga asoslangan yondashuvlarni qo'llashga undaydi.

Mentorlik faoliyati esa ayniqsa yangi ish boshlagan pedagoglar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning kasbiy moslashuv davrini sezilarli darajada osonlashtiradi. Malakali mentorlar tomonidan beriladigan metodik yo'l-yo'riqlar, kuzatuv darslari, konstruktiv fikr-mulohazalar va amaliy ko'rsatmalar yangi faoliyat boshlagan tarbiyachilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, faoliyatdagi xatolarni kamaytiradi va pedagogik madaniyatni shakllantirishga asos bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim sifatini oshirish tarbiyachilarning kasbiy mahoratiga bevosita bog'liq bo'lib, ularning malakasini tizimli rivojlantirish bugungi ta'lim siyosatining asosiy vazifalarida biridir. Tizimli metodika diagnostika, rejalashtirish, amaliy o'qitish, mentorlik, monitoring va refleksiya bosqichlari orqali tarbiyachining kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantiradi. Raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarning keng qo'llanilishi esa kasbiy o'sish jarayonini yanada samarador qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" PQ-4312.
2. B. Qodirova, Maktabgacha ta'lim metodikasi asoslari. – Toshkent: 2021.
3. X. Yo'ldosheva, Tarbiyachi pedagogning kasbiy kompetensiyasi. – Ilmiy- amaliy jurnal, 2022.
4. A. Abdullayeva, Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan, 2020.
5. Maktabgacha ta'lim vazirligi metodik tavsiyalari, 2022.
6. T. Usmonova, Pedagogik monitoring va refleksiya. – T., 2020.
7. STEAM yondashuvi bo'yicha metodik qo'llanma. – Toshkent, 2021.